



FARMATSEVTIKA VA ELEKTROTEXNIKA SANOATIDAGI DOLZARB MASALALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-noyabr kuni farmatsevtika va elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarishni yanada qo‘llab-quvvatlash, korxonalarning eksport salohiyatini oshirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Mamlakatimizda bu ikki tarmoq uchun ham zarur xomashyo, yetarli sharoitlar bor. Xususan, oxirgi olti yilda farmatsevtika sohasida ishlab chiqarish 3 barobar, eksport 6 barobar ko‘paygan. 525 million dollarlik 177 ta loyiha ishga tushib, jami 50 mingta ish o‘rni yaratilgan.

Lekin bu hali mavjud imkoniyat va talab darajasida emas. Masalan, yurtimizda yiliga 1,6 milliard dollarlik dori-darmon iste‘mol qilinadi. Bunda mahalliy mahsulotlarimizning ulushi bor-yo‘g‘i 18 foiz, qolgan import hisobidan qoplanayapti.

Shu bois, yig‘ilishda mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

— So‘nggi yillarda bu sohaga katta ko‘mak va mablag‘ berildi, farmatsevtika zonalarini tashkil etildi. Lekin bundan to‘la foydalanilmayapti. Mahalliyashtirishni kengaytirish, tadbirkorlar loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning mahsulotlari xaridorgiriligini ta‘minlash kerak. Buning zahirida qancha ish o‘rni, qancha odamlarning roziligi bor, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu borada xorij tajribasini o‘rganish, mashhur brendlarni mamlakatimizga jalb etish muhimligi ta‘kidlandi. Jumladan, eng ko‘p iste‘mol qilinadigan 50 turdagi

dorini yurtimizda ishlab chiqarish orqali mahalliyashtirish ulushini 35 foizga yetkazish mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi.

“Tashkent Pharma Park” klasteri qurilishini jadallashtirish, unga xususiy sherikni jalb etish zarurligi aytiladi. Shuningdek, farmatsevtika korxonalariga “GMP” xalqaro standartiga o‘tish va markirovkalash tizimini yo‘lga qo‘yishda ko‘maklashiladi.

Umuman, bu sohada 1,5 milliard dollarlik 173 ta loyiha shakllantirilgan. Ularni moliyalashtirish uchun 600 million dollar yo‘naltiriladi.

Mutasaddilar bularning natijasida 2024-yilda 400 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarilishi, 160 million dollar eksport ta‘minlanishi bo‘yicha axborot berdi.

Yig‘ilishda elektrotexnika sanoatiga doir masalalar ham ko‘rib chiqildi.

So‘nggi olti yilda bu sohada 640 million dollarlik 224 ta loyiha ishga tushirilgan. Bu yil yakunida eksport 1 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, yurtimizga yiliga 800 million dollarlik elektrotexnika tovarlari import bo‘lmoqda. Umuman olganda, mintaqamizda 3 milliard dollarlik bozor bor.

Bunda munosib o‘rin egallash uchun nufuzli brendlarni bilan hamkorlik o‘rnatib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligi qayd etildi. Kelgusi yilga mo‘ljallangan 2 milliard dollarlik 141 ta loyihada bunga alohida e‘tibor qaratiladi.

Joriy yilda 2 gigavatt, 2024-yilda yana 4 gigavatt quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushiriladi. Ularga juda ko‘p kabel, generator, inverter, transformatorlar zarur. Bu mahsulotlarni mahalliyashtirib, xalqaro sifat sertifikatlari olish vazifasi qo‘yildi.

Sohada ilg‘or texnologiya, innovatsiya va xalqaro standartlarni joriy etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun 100 million dollar yo‘naltirilishi belgilandi.

Mutasaddilar kelgusi yilda ishlab chiqarishni 20 foizga oshirish, misni qayta ishlash hajmini 140 ming tonnaga olib chiqish rejalarini bayon etdi. Shuningdek, eksportni 1,5 milliard dollarga, 2025-yilda 2 milliard dollarga yetkazish imkoniyati borligi qayd etildi.

Yig‘ilishda ushbu tarmoqlardagi muammo va vazifalar yuzasidan viloyat hokimlari va tadbirkorlarning takliflari eshitildi.

O‘ZA



YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI



MAHORAT, MEHNAT VA BILIM TANTANASI

Afro‘za Hamdamova 14 yoshida jahon chempioni bo‘ldi

O‘tgan hafta Apennin yarim orolidan kelgan mujda har bir yurtdoshimizning qalbini g‘ururga to‘ldirdi. Italiyaning Montesilvano shahrida o‘tkazilgan shaxmat bo‘yicha 18 yoshgacha yoshlar o‘rtasidagi jahon chempionatida hamyurtimiz Afro‘za Hamdamova g‘olib bo‘ldi. 14 yoshli Afro‘zaning O‘zbekiston tarixida qizlar orasidagi ilk jahon chempioni bo‘lgani quvonchli voqeadir.

▶ Davomi 2-betda



MUNOSABAT



MARKAZIY OSIYO IQTISODIYOTI

**global ahamiyatga
molik o‘zaro bog‘liqlik markazi**

O‘zbekiston va Ozarbayjon hamkorligi haqida gap borganida, chuqur tarixiy ildizlarga ega do‘stlik aloqalari ko‘zga tashlanadi. Bu munosabatlar vaqt sinovidan o‘tgan, tobora rivojlanib, mustahkamlanib borayotgan yaqinlik rishtalaridir. Xalqlarimizni til, din, mushtarak madaniyat va boqiy an‘ana, qadriyat va urf-odatlar bog‘lab turadi.

Ikki davlat rahbarlarining siyosiy iroda-si va uzoqni ko‘zlab yuritayotgan oqilona siyosati tufayli so‘nggi yillarda mamlakatlarning ko‘p qirrali hamkorligi yangi bosqichga ko‘tarildi, do‘stligimiz yanada mustahkamlandi.

O‘zaro siyosiy ishonch qaror topib, ikki do‘st davlat BMT, Turkiy davlatlar tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Mustaqil

Davlatlar Hamdo‘stligi va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida bir-birini qo‘llab kermoqda. Bu hamkorlik iqtisodiy, siyosiy, parlamentlararo aloqalar, madaniyat va ijtimoiy, umuman, barcha sohalarida keng quloch yozib, muvaffaqiyatlarga erishyapti.

▶ Davomi 3-betda



DOLZARB MAVZU

TAVSIYADAN TALABGA AYLANGAN ZARURAT

Global iqlim o‘zgarishlari, qurg‘oqchilik tufayli suv tanqisligi muammosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayniqsa, asosiy daryolari qo‘shni davlatlar hududida shakllanadigan O‘zbekiston uchun muammo ko‘lami ancha katta va jiddiy hisoblanadi. Buni xalqaro tadqiqot institutlari ham qayta-qayta ta‘kidlamoqda.

▶ Davomi 4-betda



TRANSPORT-LOGISTIKA

MULTIMODAL RAQAMLASHTIRISH PLATFORMASI

**xalqaro hamkorlikning samarali
mexanizmiga aylanadi**

BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPEKA) 1998-yil 26-mart kuni Toshkentda qabul qilingan deklaratsiyaga muvofiq, mintaqada mamlakatlarning iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish hamda ularning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga ko‘maklashish maqsadida ta‘sis etilgan.

Mazkur muhim platforma Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda mintaqaviy sheriklikning amaliy mexanizmi sifatida nihoyatda zarurligini yaqqol ko‘rsatdi. Uning doirasida tijorat, kommunikatsiya, transport va logistika, raqamlashtirish, energetika, suv

resurslari, ekologiya, gender tenglik va boshqa sohalarida amaliy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan 400 dan ortiq loyiha hayotga tatbiq etildi, savdoni sodalashtirish va innovatsion rivojlanish strategiyalari qabul qilindi.

▶ Davomi 3-betda



BUGUNNING GAPI



ENERGETIKA RESURSLARI BARQARORLIGI

**isrofgarchilik ham, tejamkorlik
ham o‘z qo‘limizda**

Hozir eng ko‘p iste‘mol qilinayotgan resurslardan biri elektr energiyasiga iqtisodiyot tarmoqlaridan tortib, kundalik hayotimizda ham talab va ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Hatto elektr energiyasi iste‘molidagi rekordlar ham tez-tez yangilanayotgani sir emas.

▶ Davomi 4-betda



NUQTAYI NAZAR



MUHANDISLIK TA‘LIMIDA ILG‘OR TAJRIBA

sanoatni raqamli o‘zgartirish dasturi



Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi inson kapitaliga asoslanadi. Shuning uchun ham kadrlar bilan ta‘minlash masalasi yonilg‘i-energetika kompleksini rivojlantirish strategiyasida muhim o‘rin tutadi. Vaqt ko‘rsatganidek, yangi kompetensiyalar paydo bo‘lmoqda. Ular asosiy fanlar, jumladan, kimyo fanini o‘rganishga asoslangan bo‘lishi kerak. Shu ma‘noda, Toshkent kimyo texnologiya instituti kafedra va laboratoriyalarida jarayon muvaffaqiyatli bajarilmoqda.

Bugungi OTM o‘qituvchisi kuniga 24 soat onlayn yangi avlod talabalariga mos usul va uslublarni tanlashi lozim. Ularga ham faol o‘rganish, ham mulohaza yuritish uchun vaqt kerak. Muhandislik pedagogikasining yutuqlariga asoslanib, o‘qituvchilarga to‘rt asosiy ta‘lim nazariyasidan foydalanish tavsiya etiladi: amaliy mashg‘ulot, eng muhim bilimni uzatish, yumshoq kompetensiya, mas‘uliyat.

Toshkent kimyo texnologiya institutidagi

muhandislik ta‘limi modelining muhim xususiyati ko‘p tarmoqli, turli vazifa va multitexnologiyalarga asoslanganidir. Institutda talabalar uchun o‘zgaruvchan texnologik paradigmalar moslashuvchan va faol munosabatda bo‘lish imkonini beruvchi individual ta‘lim trayektoriyalari tizimi joriy etilmoqda, “Oliy muhandislik maktabi” loyihasi amalga oshirilmoqda.

▶ Davomi 5-betda



Aktram HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi Spikeri
o'rinbosari

▶ Boshlanishi 1-betda

Xalqlarimizning ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti ham bir-biriga o'xshash. Bu do'stlikning ildizlari

MARKAZIY OSIYO IQTISODIYOTI

global ahamiyatga molik o'zaro bog'liqlik markazi

esa uzoq tarixdan quvvat oladi. "Avesto" kitobi ikki elining mustahkam yodgorligi sanaladi. O'zbek va ozarbayjon xalqining bayrami — Navro'zi bir. Xalq og'zaki ijodining nodir durdonalari — "Go'ro'g'li", "Oshiq G'arib", "Dada Qo'rqut" dostonlari esa azaliy qardoshlikning ildizlari haqida yanada teran so'zlaydi. Ularning san'ati, musiqasi hamohang.



Shu jihatdan ham xalqlarimiz til-mochsiz so'zlashadi. Keyingi yillarda bu azaliy birodarlik, o'zaro hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Yuqori darajadagi aloqalar sezilarli darajada faollashib, parlamentlararo hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda. Parlament vakillari O'zbekiston va Ozarbayjonda bo'lib o'tayotgan Prezident va parlament saylovlarida xalqaro kuzatuvchi sifatida mintazam ishtirok etib kelayotgan fikrimiz dalilidir.

Shavkat Mirziyoyevning yangi faol tashqi siyosati tufayli O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlar strategik sheriklik darajasiga chiqdi va yildan-yilga jadal kengayib bormoqda.

Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror o'sishga erishdi. Qo'shma korxonalar soni 4 barobar oshdi. Joriy yilda kelishuvga erishilgan, shuningdek, Ozarbayjonda o'zbek avtomobillarini yig'ish, ipakchilik va to'qimachilik klasterlari kabi loyihalarning amalga oshirilishi ham samarali hamkorlikning yorqin ifodasidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 23-24-noyabr kunlari Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan ushbu mamlakatga amaliy tashrifi strategik sheriklikni mustahkamlash yo'lida tashlangan yana bir muhim qadam bo'ldi. Boku shahriga tashrif doirasida bo'lib o'tgan muzokaralar chog'ida O'zbekiston — Ozarbayjon do'stlik va strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlash masalalarini muhokama qilinib, oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosi ko'rib chiqildi.

Tizim va samarali muloqotlar tufayli O'zbekiston — Ozarbayjon munosabatlari sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarilgani, amaliy mazmun bilan

boyigani mamnuviyat bilan qayd etildi. Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash 34 foizga oshgani buning yaqqol tasdiqidir.

Avtomobilsozlik, elektrotexnika, to'qimachilik, energetika, qishloq xo'jaligi va ipakchilik tarmoqlarida kooperatsiya loyiholari amalga oshirilmoqda. Transport va logistika sohasida istiqbolli loyihalar tayyorlanmoqda.

Joriy yilda BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPEKA) ta'sis etilganiga 25 yil to'ldi. Aytish joizki, SPEKA 1998-yil 26-mart kuni Markaziy Osiyo Prezidentlari, shuningdek, BMT Yevropa iqtisodiyoti komissiyasi hamda Osiyo va Tinch okeani uchun BMT Iqtisodiyoti komissiyalari ijrochi kotiblari tomonidan imzolangan Toshkent deklaratsiyasi bilan ta'sis etilgan. Dasturning asosiy maqsadi ishtirokchi davlatlarning iqtisodiy rivojlanishiga, hamkorlikka, shuningdek, Yevropa va Osiyo iqtisodiyotlarini integratsiya qilishga ko'maklashishdan iborat. Hozirda

aylantirish maqsadida sheriklikning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ishchi guruhlar faoliyati samaradorligini keskin oshirish, dasturning institutsional asoslarini mustahkamlash zarurligi qayd etildi.

BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi hamda ESKAP ekspertlari bilan birgalikda "SPEKA — 2030" taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqish taklif etildi. Bu va boshqa choralar, davlatlarimiz o'zaro savdo aylanmasini hozirgi 52 milliarddan 2030-yilga borib, 100 milliard dollarga, uning tarkibidagi sanoat mahsulotlari ulushini esa 70 foizga yetkazishga xizmat qiladi.

"Yashil" iqtisodiyot, innovatsiyalar, yuqori texnologiyalar, logistika, muqobil energetika, "aqlli" qishloq xo'jaligi, zamonaviy ijtimoiy infratuzilmani yaratish va boshqa sohalaridagi yirik loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida SPEKAning Maqsadli jamg'armasini kelgusi yilning o'zida tashkil etish va uning amaliy ishini yo'lga qo'yish muhimligi qayd etildi.



BMT ixtisoslashgan institutlari bilan mintaqada transport bog'liqligini kuchaytirish bo'yicha yirik loyihalarni faol ilgari surish niyati bildirildi.

O'zbekiston yetakchisi SPEKA doirasida oziq-ovqat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha yuqori darajadagi maxsus ishchi guruhini tuzish va uning ilk uchrashuvini kelgusi yili Samarqandda o'tkazishni taklif etdi. Suv, energetika, ekologiya va qishloq xo'jaligi sohalari o'zaro uzviy bog'liq ekanidan kelib chiqib, SPEKAning keng ko'lami yangi konseptual hujjatini — ko'p tomonlama "Yashil strategiyasi"ni qabul qilish muhimligi qayd etildi.

BMT tahlillariga ko'ra, suv taqchilligi tufayli mintaqamiz davlatlari har yili qariyb 2 milliard dollargacha mablag' yo'qotmoqda. Bunday murakkab jarayon yanada kuchaysa, muammolar kompleks hal etilmasa, kelgusida aholi jon boshiga suv bilan ta'minlash ko'rsatkichi 25 foizga, hosildorlik esa 40 foizga qisqarib ketishi mumkin.

O'zaro bog'liq transport yo'laklarini rivojlantirish haqida so'z yuritir ekan, Prezidentimiz Transkaspий multimodal yo'lagi doirasida ma'lumot almashish jarayonini raqamlashtirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi"ni hayotga to'liq tatbiq etish zarurligini ta'kidladi. Kelgusi yilda O'zbekistonda "Raqamli transport marshrutlari" xalqaro forumini o'tkazish tashabbusi eng muhim chaqiriq bo'ldi.

Davlatimiz rahbari gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Ayniqsa, ish-



iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPEKA) birinchi sammitida ishtirok etdi va nutq so'zlad. Dastur doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish, hududiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida SPEKAning Maqsadli jamg'armasini tashkil etish, transport yo'laklarini raqamlashtirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi"ni qabul qilish, tadbirkorlik tashabbuslarini ilgari surish va boshqa masalalar sessiya kun tartibidan o'rin oldi.

Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirish bo'yicha qator amaliy tashabbuslarini ilgari surdi. Dasturni iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish borasida yanada ta'sirchan mintaqaviy platformaga

bilarmon xotin-qizlarning faol tashabbuslarini va aniq rejalarini doimiy va tizimli rag'batlantirish maqsadida SPEKA Tadbirkor ayollari kengashini tuzish taklifi eng muhim chaqiriqlardan biri bo'ldi, desak mubolag'a emas.

Sammit doirasida ilgari surilgan tashabbuslar mamlakatimizning SPEKA doirasidagi ko'p tomonlama, ochiq, amaliy va o'zaro manfaatli sheriklikni izchil rivojlantirishga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi. Uning yakunlari bo'yicha erishilgan natijalar Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochishi shubhasiz.



MULTIMODAL RAQAMLASHTIRISH PLATFORMASI

xalqaro hamkorlikning samarali mexanizmiga aylanadi

Abdurauf QORJOVOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

▶ Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov shu yilning aprel oyida SPEKAga a'zo davlatlar vazirlari ishtirokida videokonferensaloqqa tarzida bo'lib o'tgan yig'ilishda qayd etganidek, ushbu platforma mamlakatimizning keyingi yillardagi faol tashqi iqtisodiy siyosatining savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy sohalarida sezilarli natija berdi. Xususan, O'zbekiston va SPEKA davlatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash miqdori ikki barobar oshib, 9,2 milliard dollarni tashkil etdi. Mintaqa mamlakatlari korxonalari bilan yo'lga qo'yilgan qo'shma subyektlar soni 2017-yildan buyon besh barobar ko'payib, 2 ming 212 taga yetdi.

Mazkur yig'ilishda transport yo'laklarini diversifikatsiya qilish va BMT standartidan foydalangan holda Transkaspий yo'lagi bo'ylab multimodal ma'lumot va hujjat almashuvini raqamlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" qabul qilish masalasi muhokama qilingan edi.

Raqamli transport yo'nalishlari

Mintaqa mamlakatlari transport va tranzit kommunikatsiyalari bo'yicha hamkorlik borasida ham ulkan salohiyatga ega. Masalan, O'zbekiston Boku — Tbilisi — Axalkalak — Qars temir yo'lidan, Ozarbayjonning xalqaro portidan, shuningdek, Shimol —



Janub va Sharq — G'arb xalqaro transport yo'laklaridan foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, Osiyodan Yevropaga eng qisqa quruqlik yo'li, ya'ni Bokudan yo'lga chiqqunchi avtomobil va poyezdlar Turkiyaning Qars viloyatiga to'g'ridan-to'g'ri yetib borishiga imkon yaratadigan Zangezur yo'lagini tiklash ham manfaatli chora-tadbirlar sarisiga kiradi. Qolaversa, bu jarayonda tranzit punktlari funksiyasi bilan cheklanib qolmay, transport yo'nalishlari bo'ylab ishlab chiqarish, logistika va savdo maydonchalarini tashkil etish orqali iqtisodiy yo'laklar shakllantirilishi mumkin.

Transkaspий xalqaro transport yo'nalishi Xitoy, Qozog'iston, Kaspiy dengizi, Ozarbayjon, Gruziya, Turkiya, Qora dengiz va undan keyin Yevropa davlatlariga o'tadi. Ozarbayjonlik ekspert Gasan Gasanovning aytishicha, "Transkaspий yo'lagi multimodal, aniqrog'i, temir yo'l, avtomobil va aviatsiya yo'lagiga aylanadi. Bundan tashqari, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston — Turkmaniston — Ozarbayjon loyihasi ishlab chiqilmoqda. Energiya quvurlari transport tizimini rivojlantirish ham Transkaspий yo'lagingiz tarkibiy qismi bo'lishi mumkin".

Gretsiyaning multimodal yuk tashish kompaniyasi direktori Juliya Shabanova intervyularidan birida Transkaspий yo'lagingizdan to'laqonli foydalanish vaqti kelganini aytgan edi. U quuruqlikdan boshlanib, Kaspiy dengizi orqali Boku — Tbilisi — Qars yo'lga chiqishi yoki Batumidan Yevropaga dengiz yo'li bilan bog'lanishi mumkin. Turkiyaning Istanbul yoki Mersin shaharlariga bemalol yetib boradi. Hozir biz ana shu yo'nalishlardan foydalanyapmiz.

O'zbekiston Ozarbayjon va Turkiya bilan yuk tashish hujjatlarini raqamlashtirdi, shuningdek, boshqa davlatlar bilan bunday loyihalar amalga oshirilmoqda. Qonunchilik palatasi deputati Umid Jabborovning fikricha, Transport vazirligi huzurida tashkil

etilgan "Raqamli transport" markazi hamda poytaxtning butun hududi bo'yicha harakatlanayotgan transport turlari va avtomobil yo'llarini onlayn kuzatish imkonini beruvchi Situatcion markaz faoliyati bilan yaqindan tanishish jarayonida sohani raqamlashtirishda salmoqli ishlar amalga oshirilgani namoyon bo'ladi. Xususan, Boeing kompaniyasi havo kemalariga IT yo'nalishida zamonaviy xizmat ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha O'zbekistonda joriy etilgan "e-Enabling" tizimining samaradorligi, shuningdek, temir yo'llar tizimida joriy etilgan sun'iy intellekt-dan foydalangan holda me'yordan ortiq yuk o'rtilgan vagonlarni aniqlovchi yangi axborot tizimining imkoniyatini yuqori baholash mumkin.

Shu bilan birga, yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Jumladan, dispatcherlik markazlarining zamonaviy kompyuterlar, internet aloqasi va qo'shimcha axborot vositalari bilan ta'minlanganlik darajasini tubdan yaxshilash zarur.

Bojxona tranzit texnologiyalari

O'zbekiston Markaziy Osiyoda TIR-EPD, Real-Time SafeTIR, AskTIRweb texnologiyalarini joriy etgan birinchi mamlakat hisoblanadi. Shu yil iyun oyida Samarqandda TIR Ijroiya kengashi, Eron, Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston bojxona tizimi mas'ullari va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida tranzit tashishni raqamlashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda bu jihatga alohida urg'u berilgan edi.



TIR — ("Transports Internationaux Routiers") tovarlarni kelib chiqqan mamlakatdan belgilangan davlatga bojxona nazoratidan shaffof, o'zaro tan olingan tartib-larga muvofiq, muhrlangan yuk bo'limlarida tashish imkonini beruvchi jahon miqyosida uyg'unlashtirilgan bojxona tranziti tizimi. Bu tovarlarni bir necha xalqaro chegaralar orqali olib o'tishning eng oson, xavfsiz va ishonchli usuli bo'lib, tashuvchilar va bojxona organlarining vaqti va mablag'ini tejaydi.

TIR konvensiyasi 1978-yilda kuchga kirgan. O'zbekiston ushbu konvensiyaga 1995-yilda qo'shilgan. Dengizga chiqish yo'li bo'lmagan va quuruqlikdagi transport tizimi muhim ahamiyatga ega mamlakat sifatida O'zbekiston TIR-karim kitobchalaridan foydalanish bo'yicha 77 ta ahdlashuvchi davlat ichida ikkinchi o'rinni (Erondan keyin) egallaydi.

— TIR tizimi tashish vaqtini 80 foiz, xarajatlarni esa 38 foizgacha qisqartiradi, — deydi italiyalik mutaxassis Marko Champi. — Har yili 1 millionga yaqin tashuv TIRdan foydalangan holda amalga oshiriladi. Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda bojxona tizimi allaqachon kompyuterlashtirilgan. Ushbu tajribadan unumli foydalanib, boshqa mamlakatlarda ham mazkur tizimni to'liq raqamlashtirish kerak.

Salohiyat va imkoniyat

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlarining yaqinda Toshkentda bo'lib o'tgan navbatdagi sammitida ko'p qirrali hamkorlik istiqbollari va uni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatlari muhokama qilindi, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

Ekspertlar fikricha, transport-kommunikatsiya sohasida barcha sa'y-harakatlarni birlashtirish IHT davlatlarining transport

salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bino-barin, IHTga a'zo davlatlarning aksariyati dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emas. Bu muammoni hal etishda Osiyo-Tinch okeani, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa mintaqalarining yirik bozorlari bilan bog'laydigan va mintaqahududlari orqali o'tadigan transqitaviy transport yo'laklari salohiyatidan to'liq foydalanish, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li va Transafyon multimodal yo'li loyihalarini ishga tushirishni tezlashtirish taqozo etiladi.

Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li loyihasining amalga oshirilishi Sharqiy Osiyodan Yaqin Sharq va Janubiy Yevropa mamlakatlariga bo'lgan yo'lni taxminan 900 kilometr, yuk yetkazib berish muddatini esa 7-8 kun kamaytiradi. Dastlabki prognozlarga ko'ra, yuk tashish hajmi yiliga 12-15 million tonnaga yetadi. Qurilish ishlariga 2024-yilda start berilishi mo'ljallangan.

Afg'onistonda Hayraton va Mozori Sharif o'rtasida temir yo'l barpo etilishi mintaqahududlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan muhim loyiha — Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar temir yo'l yo'lga qurilishining uzviy qismi hisoblanadi.

— IHT transport vazirlarining Toshkentda joriy yil 2-noyabr kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya transport yo'lagini rivojlantirish bo'yicha hujjat qabul qilindi, — deydi O'zbekiston transport vaziri Ilhom Mahkamov. — Bu yo'nalish, birinchi navbatda, O'zbekiston va Turkiya o'rtasida yuklarni muqobil Janubiy yo'lak orqali raqobatbardosh narxlarida va chegaradan o'tish davlatlarini qisqartirish hamda tartib-taomillarni soddalashtirish hisobiga qisqa muddatlarda yetkazib berishga imkon yaratadi.

Prezidentimiz IHT sammitida qabul qilingan ushbu hujjatga IHTga a'zo boshqa mamlakatlarni ham qo'shilishga, o'zaro tarif va yig'irlarni maqbullashtirishga da'vat etdi. Ta'kidlash joiz, O'zbekiston Ozarbayjon va Turkiya bilan yuk tashish hujjatlarini raqamlashtirdi, shuningdek, boshqa davlatlar bilan bunday loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bu kabi zamonaviy tizimlarni keng joriy qilish hamda samarali muvofiqlashtirish uchun Toshkent shahrida tashkilotning Raqamli transport va bojxona ofisini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi.

Mamlakatimiz transport yo'laklaridan samarali foydalanishga qaratilgan loyihalar bo'yicha ishlarni SHHT, MDH, TRASEKA, TDT doirasida ham faol olib bormoqda.

Tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, dengizga chiqish imkoniga ega bo'lmagan mamlakatlar transport xizmatlari uchun ikki barobar ko'p mablag' sarflaydi. Ko'p holda Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun transport xarajatlari import qilinaadigan tovarlar qiymatining 60 foiziga yetadi.

Bugungi kunda O'zbekistonning eksport-import va tranzit aloqalari 9 ta xalqaro transport yo'lagi bo'ylab amalga oshirilmoqda, ulardan 8 tasi kamida mazkur tashkilotga a'zo bir mamlakat orqali o'tadi. O'zbekiston bilan chegaradosh 5 mamlakatdan 2 tasi tashkilot a'zosi (Qozog'iston va Qirg'iziston) va 1 tasi kuzatuvchi maqomiga ega (Turkmaniston).

Hozir jahonning aksariyat davlatlari oldida ko'ndalang turgan muammolar transport va bojxona sohalarida kuzatilmoqda. Shu bois, tashkilotga a'zo davlatlar boshqa mamlakatlarni ham bojxona tartib-taomillari soddalashtirilgan mazkur yo'lakka integratsiyalanishga da'vat etmoqda.

Negaki, Osiyo orqali asosiy jahon bozorlari, jumladan, Xitoy, Hindiston, Pokiston va Osiyoning boshqa mamlakatlariga, shuningdek, Ozarbayjon va Turkiya orqali Yevropa davlatlariga chiqishni taminlash muhim ahamiyatga ega. Bu yo'nalishlarda transport yo'laklarini rivojlantirish, logistika infratuzilmasini yaratish bo'yicha yirik loyihalarni birgalikda amalga oshirish umumiy manfaatlarimizga to'la javob beradi.

Tashkilotga a'zo davlatlarning raqamli texnologiyalarni joriy etishni kengaytirishga intilishi bu sohada amaliy hamkorlikni yanada oshirish, jumladan, elektron mintaqalararo savdo va tovar birjasini birgalikda rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish uchun sharoit yaratadi.

Raqamli yechimlar Markaziy Osiyo mamlakatlari Xitoy va Janubiy Osiyo mintaqasi bilan bog'lashi mumkin bo'lgan quuruqlik ko'prigiga aylantirishga imkon beradi. Bu esa mintaqahududlarining global ta'minot zanjirlari va xalqaro tranzit yuk tashuvlariga yanada chuqurroq integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Muzaffarjon HAKIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Strategik islohotlar agentligi
bosh konsultanti

Boshlanishi 1-betda

Xususan, O‘zbekistonda joriy yil 26-iyul kuni ushbu tabiiy resursning bir kunlik iste‘moli 250,7 million kilovatt-soatni tashkil etib, shu davrgacha bo‘lgan eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etgan edi. Oldimizda qish mavsumi va ob-havo qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, bu davrda elektr energiyasiga bo‘lgan talab bir necha barobar oshishi tabiiy.



o‘tish eng to‘g‘ri yechim sifatida qaralmoqda. Aksariyat mamlakatlar bu borada, allaqachon, ilgari lab ulgurdi.



O‘zbekiston ushbu masalaga jiddiy e‘tibor qaratayotgan davlatlardan biri. So‘nggi yillarda bu borada ko‘plab qarorlar qabul qilinib, qonuniy asoslar ham yaratil-yapti. Xususan, 2019-yilda qabul qilingan “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil-da kuchga kirgan yangi tahrirdagi energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risidagi qonunlar shular jumlasidan.

Qolaversa, amaliyotda ham energiya manbalaridan oqilona foydalanish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilib, joriy yilda bu harakatlar yanada faollashdi. Bunda asosan, uchta yo‘nalish belgilab olin-gan. Bular iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish hamda aholi kesimida energiya tejamkor-ligiga erishishdan iborat. Har biri alohida va katta yo‘nalish bo‘lgani holda, bariga

zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiyalar joriy etish ko‘zda tutilgan.


Xususan, sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish maqsadida alohida tizim tashkil qilinaypti. Bu xalqaro energiya menejmentini joriy etish bo‘lib, ISO 50001 standarti talablariga javob berishni nazarda tutadi. Yirik korxonalarda ushbu standartni joriy etish energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘plab imkoniyatlar yaratadi. Biz aynan shunga intilyapmiz va bu bo‘yicha faol harakatlar boshlangan.

Yana bir yo‘nalish ijtimoiy energiya samaradorligini oshirishdan iborat. Bu bora-da ham yirik loyihalar amalga oshirilyapti, shulardan biri Jahon banki bilan hamkorlikdagi ishlardir. Loyiha qiymati 143 million dollar bo‘lib, yurtimizdagi mingdan ortiq ijtimoiy soha obyektlarini rekonstruksiya,

modernizatsiya qilish ko‘zda tutilgan. Gap shundaki, eskirgan qurilmalar ish jara-yonida resurslarni bir necha barobar ko‘p sarflaydi, yo‘qotishlar ham shunga yarasha oshib boradi. Ularni o‘z vaqtida ta‘mirlab, sozlab borish esa natijadorlikning bosh omillaridan biri. Ya‘ni energiya resurslarini ishlab chiqarish hajmi bilan birga, undan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi ham dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Zamonaviy tejamkorlik

Ayniqsa, aholi kesimida energiya tejamkorligini oshirishga talab yuqori. O‘rganishlar jarayonida bu borada katta imkoniyatlar borligiga qaramay, yurtimizda energiya sarfi ancha yuqori ekanini ko‘rdik. Yaponiyalik ekspertlar o‘z tahlillarida bir kvadrat metr joyni isitish uchun yillik 390



kilovatt-soat energiya sarflayotganimiz xulosasini berdi. Yevropa davlatlarida esa bu ko‘rsatkich 120 kilovatt-soatni tashkil qila-di. Shu nuqtayi nazardan, barqaror isitish tizimi va energiya tejamkor texnologiyalar-ga o‘tish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish va tatbiq etishga intilyapmiz. Ayniqsa, isitish tizimining barqarorligini ta‘minlashda mamlakatimizda issiqlik nasoslarini amaliyotda qo‘llash ishlari boshlangan.

Energiya manbalarini tejash haqida gap ketganida, ko‘z oldimizga birdan qayta tiklanuvchi energiya manbalari va zamo-naviy, tejamkor texnologiyalar keladi. Ja-honda bunday texnologiyalarga talab ortib bormoqda. Sanoat korxonalaridan tortib, bino-inshootlar, aholi xonadonlarida ham ulardan keng foydalanilyapti. Qurilish ish-larida tejamkor texnologiyalar ommalashib, ularning hisobiga energiya samaradorligi bir necha barobar oshmoqda, bu ham iqtisodiyotga, ham aholi byudjetiga sezilarli foyda keltirayotgani rost. Birgina yoritish chiroqlarini olaylik. Xonadonimizdagi bir dona eski tipdagi cho‘g‘lanma lampani energiyatejamkor lampaga almashtirish orqali yil davomida 80 ming so‘mgacha mablag‘ iqtisod qilishimiz mumkin. Ana endi, shunday tejamkor lampaning bir nechtasidan foydalanish oila byudjetiga qancha foyda keltirishini hisoblayvering. Shu bois, aholi, korxonalarda yoritish tizi-mini modernizatsiya qilish dasturi doirasida cho‘g‘lanma lampalarning O‘zbekistonga olib kirilishi va undan foydalanish taqiqlan-gan.

Yurtimizda issiqlik nasoslari bozorini shakllantirish va qurilmadan foydalanishni ommalashtirishga qaratilgan harakatlar ham shularning bir qismi. Gap shundaki, kilovatt-soat energiya sarflayotganimiz xulosasini berdi. Yevropa davlatlarida esa bu ko‘rsatkich 120 kilovatt-soatni tashkil qila-di. Shu nuqtayi nazardan, barqaror isitish tizimi va energiya tejamkor texnologiyalar-ga o‘tish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish va tatbiq etishga intilyapmiz. Ayniqsa, isitish tizimining barqarorligini ta‘minlashda mamlakatimizda issiqlik nasoslarini amaliyotda qo‘llash ishlari boshlangan.

Energiya manbalarini tejash haqida gap ketganida, ko‘z oldimizga birdan qayta tiklanuvchi energiya manbalari va zamo-naviy, tejamkor texnologiyalar keladi. Ja-honda bunday texnologiyalarga talab ortib bormoqda. Sanoat korxonalaridan tortib, bino-inshootlar, aholi xonadonlarida ham ulardan keng foydalanilyapti. Qurilish ish-larida tejamkor texnologiyalar ommalashib, ularning hisobiga energiya samaradorligi bir necha barobar oshmoqda, bu ham iqtisodiyotga, ham aholi byudjetiga sezilarli foyda keltirayotgani rost. Birgina yoritish chiroqlarini olaylik. Xonadonimizdagi bir dona eski tipdagi cho‘g‘lanma lampani energiyatejamkor lampaga almashtirish orqali yil davomida 80 ming so‘mgacha mablag‘ iqtisod qilishimiz mumkin. Ana endi, shunday tejamkor lampaning bir nechtasidan foydalanish oila byudjetiga qancha foyda keltirishini hisoblayvering. Shu bois, aholi, korxonalarda yoritish tizi-mini modernizatsiya qilish dasturi doirasida cho‘g‘lanma lampalarning O‘zbekistonga olib kirilishi va undan foydalanish taqiqlan-gan.

Yurtimizda issiqlik nasoslari bozorini shakllantirish va qurilmadan foydalanishni ommalashtirishga qaratilgan harakatlar ham shularning bir qismi. Gap shundaki,

isitish sektori samaradorlik va qayta tikla-nadigan energiya integratsiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Dunyo taraqqiyotida bino va inshootlarning issiq-lik ta‘minoti asosan, issiqlik nasoslari orqali amalga oshirilmoqda. Mahalliy va xalqaro ekspertlarning o‘rganishlariga ko‘ra, uy-larni isitish va sovitishda issiqlik nasoslari yuqori samaradorlikni ta‘minlaydi. Kel-gusi yillarda O‘zbekistonning energiyaga bo‘lgan talabi yanada oshib borishini hi-sobga olsak, bunday texnologiyalarga zarurat yuqori.

Jumladan, mamlakatimizda 1 kilovatt-soat elektr energiyasi yordamida 0,9 kilovatt-soat issiqlik energiyasi oladigan bo‘lsak, issiqlik nasoslari qurilmasi bilan 1 kilovatt-soat elektr energiyasi iste‘moli evaziga 5 kilovatt-soat issiqlik energiyasi-ga erishish mumkin. Ya‘ni issiqlik nasoslari besh barobar yuqori darajada energiya sa-marador qurilma hisoblanadi.

Yevropa davlatlarida uylarni isitish va sovitishda issiqlik nasoslari keng qo‘llanilmoqda. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda Yevropa bo‘yicha issiqlik nasoslarini savdosi deyarli 40 foizga oshgan. AQSH va Fransiya-da issiqlik nasoslari qazib olinadigan yoqilg‘i tizimlaridan ustun keldi. 2030-yilga borib, issiqlik nasoslar-ning savdo hajmi uch barobar ko‘payishiga oid prognozlar ham bor. Bu esa ushbu bo-zorning global ta‘minot zanjirini kuchayti-radi. O‘sha vaqta kelib, bu nasoslar isitish uchun an‘anaviy yoqilg‘idan foydalanishni ikki barobar, tabiiy gazga talabni 80 mil-liard metr kubga kamaytirishi kutilmoqda.

Issiqlik nasoslari xuddi muzlatgich yoki sovitgichga o‘xshash, faqat teskari yo‘nalishda ishlaydi. Uning asosiy ele-mentlari bug‘latgich, kompressor, kondit-

sator va klapan bo‘lib, qurilma kuz-qish mavsumida suvni 65 darajagacha isitadi. Bu bino ichidagi issiq pollarning harora-tini ortig‘i bilan ta‘minlashda qo‘l keladi. Yana bir afzalligi, bino ichi va tashqarisiga o‘rnatish hamda foydalanishda qulayligidir. Ba‘zi modellari bir vaqtda isitish va sovitish funksiyalariga ega. Asosan, elektr tokida ishlashga qaramay, 3-4 barobar kam ener-giya iste‘mol qiladi. Bu texnologiya havo, yer va suvdan issiqlikni tortib olish hisobiga issiqlik energiyasi quvvatini oshiradi.

Issiqlik nasoslaridan bino-inshootlar-ni isitishda foydalaniladi. Hozirgi kunda ushbu qurilma bozorlarimizga ham kirib kelgan va yirik korxonalar, savdo markaz-lariga o‘rnatilgan. Endilikda ulardan aholi xonadonlarida ham keng foydalanishni tashkil etish bo‘yicha ishlar olib borilmoq-da. Texnologiyalarni dastlab hududlarda qurilayotgan yangi O‘zbekiston massiv-larida joriy etish ko‘zda tutilgan. Yurtimiz sharoitida issiqlik nasoslaridan keng foy-dalanish tabiiy gazga talabni bir necha barobar kamaytirib, optimal isitish tizi-mini joriy etish, aholining isitish va sovi-tishga bo‘lgan ehtiyojining katta qismini qondirish, qolaversa, atmosfera havosi ifloslanishini kamaytirish imkonini beradi. Shu bois, xorijlik hamkorlar bilan birgalikda issiqlik nasoslarini joriy etish bo‘yicha yaq-in istiqbolga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari, bino va inshootlarda energiya auditini o‘tkazish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalar, qonunchilik asoslari ham o‘rganilyapti. Yurtimizda ishlab chiqarila-yotgan energiya resurslarining 50 foizdan ko‘proq qismi bino-inshootlarni isitish va sovitishga sarflanadi. Bu juda katta raqam. Biz bu boradagi ko‘rsatkichlarni jahon standartlariga moslashtirish ustida ishla-yapmiz. Energiya auditi xulosalariga ko‘ra, har bitta bino-inshootda o‘rganishlar olib borilib, qaysi yo‘l bilan energiya resursla-rini iqtisod qilish mumkinligi tahlil qilinadi. Energiya auditi, bu — bino-inshootlarda energiya ta‘minoti, uni taqsimlash va iste‘mol qilish tizimlarini texnik-iqtisodiy jihatdan tekshiruvdan o‘tkazish. Aynan shu tizim orqali energiya resurslari sarfini kamaytirish, ya‘ni tejamkorlikka erishish mumkin. Bundan 3 yil oldin yurtimizda energiya auditi yo‘nalishida 4 ta kompani-ya faoliyat olib borgan bo‘lsa, bugunga kelib, ular soni 64 taga yetdi.

Bu esa ushbu sohadagi ishlar aniq reja asosida manzilli amalga oshirilayotgan-dan dalolat. Zero, elektr energiyasi qayta tiklanmaydigan, qimmatbaho resurslar-dan biri. Uni tejab ishlatish, foydalanish samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodi-yot tarmoqlari rivoji, balki aholi farovonli-gini ta‘minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

DOLZARB MAVZU



Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“O‘quv dasturlarida shu yil oktabriga qadar qariyb 1 ming 800 tinglovchi qatnashib, bilimini oshirgan. Qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan seminarlarda esa fermer va dehqon xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi mutaxassislaridan 3 mingga yaqini ishtirok etgan.

Boshlanishi 1-betda

Jumladan, Jahon resurslari instituti (World Resources Institute) prognozlariga ko‘ra, 2040-yilga borib, O‘zbekiston suv-ning eng sezilarli taqchilligi kuzatiladigan 33 mamlakat qatoridan joy oladi.

TAVSIYADAN TALABGA AYLANGAN ZARURAT

ya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari Shuhratjon Ergashev. — Mamlakatimizda suv taqchilligi ko‘lami ortib borayotgani taraqqiyotimizga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biriga aylanishi mumkin. Sug‘oriladigan dehqonchilik min-taqa daryolari havzalaridan olinadigan suv-ning 90 foizdan ortig‘ini tashkil etadi, oziq-ovqat va energiya xavfsizligini ta‘minlash zarurati tufayli suvga ehtiyojimiz ortadi. Bu qishloq xo‘jaligida suv resurslari boshqarili-



shini takomillashtirishni asosiy maqsadga aylantiradi.

“Farg‘ona vodiysida suv resurslarini boshqarish. Il bosqich” loyihasini rivojlan-tirishdan ko‘zlangan maqsad qishloq xo‘jaligidan foydalanuvchilarga sug‘orish va drenaj xizmatlari ko‘rsatish sifatini oshirishdan iborat.

Loyiha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘lim faoliyati, ma‘lumot tarqatish, texnologiyalar namoyi-shi, tajriba almashish va boshqa axborot, moliyaviy va texnik yordam manbalarini

qamrab oladi. B komponenti ikkita kichik qismdan iborat bo‘lib, birinchisi, qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish va diversifi-katsiya qilish, ikkinchisi esa suv resursla-rini boshqarishni takomillashtirish hisobla-nadi.

Farg‘ona vodiysi fermer va dehqon-lari uchun o‘quv mashg‘ulotlari suv xo‘jaligi tizimidagi innovatsion yechim-lar va ko‘rgazmali maydonlarning af-zalliklari bo‘yicha institutsional bilimni

oshirish uchun yengil avtoma-shina, 16 ta motoroller, 80 ta ve-losiped berildi.

Bugun fermer va dehqonlar o‘rtasida suv tejavchi texnologiyalar-dan foydalanishni ommalashtirish, bu-ning uchun ularda tejamkorlik munosaba-tini shakllantirish asosiy masalalardan biri. Qachonki, ular zamonaviy sug‘orish tizi-mi-ni an‘anaviy sug‘orish tizimidan ustunligini anglab yetsa, natija shunga yarasha yanada yuqori bo‘ladi. Bunga erishishning yagona yechimi esa fermer va dehqonlarni mazkur yo‘nalishlarda o‘qitishdir. Shu maqsadda loyiha doirasida seminar-treninglar tashkil etilgan.

O‘quv dasturlarida shu yil oktabriga qad-ar qariyb 1 ming 800 tinglovchi qatnashib, bilimni oshirgan. Qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan seminarlarda esa fermer va dehqon xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi mu-taxassislaridan 3 mingga yaqini ishtirok etgan.

Andijon viloyati Jalaquduq tumanidagi “Tohirjonov Umidjon” fermer xo‘jaligi rah-bari Umidjon Tohirjonov ham ana shunday o‘quv dasturlarida qatnashib, kartoshka ekilgan 5 gektardan oshiq dalaga loyiha granti asosida suv tejavchi texnologiyalar o‘rnatgan.

Fermerning ta‘kidlashicha, bu texnologiya qo‘llanilgan maydonda boshqa dalalardagiga nisbatan hosildorlik gektariga 10-15 tonna yuqori bo‘ldi. Shu-ning uchun ham fermer kelgusi yillarda barcha ekin maydoniga ushbu texnologiyalarni o‘rnatmoqchi.

Farg‘ona viloyati Quvasoy shah-rida joylashgan “Ko‘paysinobod” fermer xo‘jaligi rahbari Shokirjon Qorayev ham bundan 6 yil ilgari bog‘ining 5 gektariga

oshirish uchun yengil avtoma-shina, 16 ta motoroller, 80 ta ve-losiped berildi.

Bugun fermer va dehqonlar o‘rtasida suv tejavchi texnologiyalar-dan foydalanishni ommalashtirish, bu-ning uchun ularda tejamkorlik munosaba-tini shakllantirish asosiy masalalardan biri. Qachonki, ular zamonaviy sug‘orish tizi-mi-ni an‘anaviy sug‘orish tizimidan ustunligini anglab yetsa, natija shunga yarasha yanada yuqori bo‘ladi. Bunga erishishning yagona yechimi esa fermer va dehqonlarni mazkur yo‘nalishlarda o‘qitishdir. Shu maqsadda loyiha doirasida seminar-treninglar tashkil etilgan.

O‘quv dasturlarida shu yil oktabriga qad-ar qariyb 1 ming 800 tinglovchi qatnashib, bilimni oshirgan. Qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan seminarlarda esa fermer va dehqon xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi mu-taxassislaridan 3 mingga yaqini ishtirok etgan.

Andijon viloyati Jalaquduq tumanidagi “Tohirjonov Umidjon” fermer xo‘jaligi rah-bari Umidjon Tohirjonov ham ana shunday o‘quv dasturlarida qatnashib, kartoshka ekilgan 5 gektardan oshiq dalaga loyiha granti asosida suv tejavchi texnologiyalar o‘rnatgan.

Fermerning ta‘kidlashicha, bu texnologiya qo‘llanilgan maydonda boshqa dalalardagiga nisbatan hosildorlik gektariga 10-15 tonna yuqori bo‘ldi. Shu-ning uchun ham fermer kelgusi yillarda barcha ekin maydoniga ushbu texnologiyalarni o‘rnatmoqchi.

Farg‘ona viloyati Quvasoy shah-rida joylashgan “Ko‘paysinobod” fermer xo‘jaligi rahbari Shokirjon Qorayev ham bundan 6 yil ilgari bog‘ining 5 gektariga

loyiha granti asosida tomchilatib sug‘orish tizimini o‘rnatgan edi.

— Suv bizning hududda ham borgan sari taqchillashib bormoqda. Boshida bu-tun bog‘ni to‘liq sug‘orish uchun haftalab ovora bo‘lganimizni juda yaxshi eslay-man, — deydi Sh.Qorayev. — Suvni qo‘riqlab olis-olislardan olib kelish o‘zi bir mashaqqat bo‘lsa, kechasi uxlamay bog‘ sug‘orish yana bir mashaqqat edi. Suv tejavchi texnologiyalar esa nihoyatda qulay. Suv deb yugurmaysiz, qo‘shasiz, o‘chirasiz. Hammasi avtomatlashtirilgan. Qaysi qator qancha suv ichishi kerak — bari jadval asosida. Bog‘bon uchun bun-dan zavqlisi bormi?!

Farg‘ona vodiysida mazkur loyiha doirasida ekin maydoniga bunday zamo-naviy texnologiyalar o‘rnatgan dehqon va fermerlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular-ning deyarli barchasi kam suv sarflab, ko‘p hosil olmoqda. Aslida, bugungi kunning asosiy talabi aynan shu emasmi?

Demak, mamlakatimizning barcha hududlarida amalga oshirilayotgan bu kabi loyihalarni yanada jadallashtirish nafaqat suvni tejashga, balki hosildorlikni oshirish-ga ham xizmat qiladi. Zero, suvni tejash bugungi kunda tavsiya emas, talab bo‘lishi kerak.





MILLAT FIDOYILARI

“AYOLLARNING TARBIYATI FOYDALI...”

Jadid bobolarimizning millat ayollarini ma’rifatli qilish orzulari

Ra’no SAYFULLAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Prezidentimiz shu yil noyabr oyi boshida Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlari kengashining 10-sammitidagi nutqida “Ijodiy fikrlaydigan, iste’dodli va shijoatli yoshlarimiz istiqbolida turkiy dunyoning yangi Rennansini barpo etishiga ishonchim komil. Bu yo’lda ularga buyuk ajdodlarimiz yaratgan ilmiy kashfiyotlar va ma’naviy meros mustahkam zamin bo’lib xizmat qiladi. Ta’kidlash o’rinliki, o’tgan asrda yashagan jadid bobolarimizning ibratli faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini chuqur o’rganish yuzasidan a’zo mamlakatlarda katta ishlar amalga oshirilmoqda”, deya ta’kidladi hamda ularning vakillarini joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo’lib o’tadigan “Jadidlar: milliy o’zlik, istiqbol va davlatchilik g’oyalari” mavzusidagi xalqaro anjumanda faol ishtirok etishga taklif qildi.



Ushbu tashabbus mamlakatimiz olimlari zimmasiga yanada ulkan mas’uliyat yuklab, jadid bobolarimizning merosini yangicha nigoh bilan o’rganishga, tadqiqotlar ko’lamini kengaytirishga da’vat etmoqda.

Ma’lumki, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is’hoqxon Ibrat va Abdurauf Fitrat asarlarida siyosiy, huquqiy masalalar bilan bir qatorda oila, ayol ma’naviyati va milliy o’zlik g’oyalari ijtimoiy-ma’rifiy, ma’naviy-falsafiy jihatdan nihoyatda chuqur otilgan.

Serqirra iste’dod sohibi, “Matbaai Is’hoqiya” nashriyoti bilan millat tarixidagi birinchi noshir maqomiga ega Is’hoqxon to’ra Ibratning birinchi ustozlari onasi Hurbibi aya bo’lgan. Bolaligidan adabiyotga va kitobga ulkan muhabbat bilan ulg’aygan ma’rifatparvar olim o’zining “Mezon-uz zamon” asarida shunday deydi: “Usuli jadid demak — yangi qoida, yangi tartib demakdur, desak hama qabulga olmagan edilar. Gardishi ovon va xohishi zamon ila o’zi-o’zicha joriy bo’lib ketti. Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida 5 yilda 3 adad muallimda o’qub, oxiri savodim chiqmay, keyin qizlar maktabida, o’z uyimda volidai marhumamdan o’qub savod chiqardim. Ikki sana qiblagohimdan husnixat mashq etdim. Boqing, mahalla maktabida usuli qadimda yetti yil umrni zoyi’ etub, o’quv-yozuvni bilgon edum. Mana endi banda o’zum usuli savtiyaning avlodi islom’ga yordamini ko’rub, o’z masjidiyima maktab ochdim. Bir sanada ko’b yoshlar, hattoki katta yoshga kirgan tujiorlardan o’qub, xat-savodini chiqorub, ma’ishat va tujioratlarida osonliklar mushohada qildilar. Har zamonning o’ziga qarab, ilmu hunar kasbi dardkor.”

Is’hoqxon Ibrat ota-onalarning o’ziga zamonaviy bilim berish, ularning o’zlarini yangi maktablarga taklif etishini, ma’naviyatini oshirib borishni kechiktirib bo’lmaydigan dolzarb masala deb bilgan. Albatta, ta’lim tizimidagi yangilanishlar tez natija bermasligi, buning uchun ko’p yillar zarurligi hammaga ma’lum. Olim ilm olish bilan hunar o’rganish birga olib borilishi zarur, deb hisoblaydi. Ota-onaning shaxsiy ibratlari, ta’lim-tarbiyasi bolaning sog’lom, har tomonlama barkamol shakllanishini ta’minlaydi, unda o’qishga intilish hissini uyg’otadi. Bu maqsadlarning ro’yobga chiqishida mahallalarning ham o’rni bor. Bola kichikligidan egallashi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma yoki ma’naviy sifatlarning poydevori oilada shakllanadi.

“To’raqo’rg’ondan maktab” maqolasida olim eng og’irliq mavzulardan birini o’rtaga tashlaydi: “Holo ham biz qadimgi, eski

andishada mozorlarga sig’inib, o’z dinimizga harakat qilmay, oqcha topsak, xohish uloq, to’ylarga o’n ming sarfi behuda, isrof degan ulamo yo’q. O’lganga besh ming sarf-isrof uchun qaysi ulamo bularga fatvo bergan, halol deb. Halol desa, bundan zarur halollar bor. Ular qolubdur. Hech kimda xalqg’a nasihat yo’q, bo’lsa ham quloqg’a olmaylar. Yoshlar bo’lsa kukli ila yuradurlar. Qarilar ahli ayolini betartibda, axloqsiz qilib o’sturgan. Uylangandin so’ng rosxud otasidin yeydur. Otasi biror kun kamroq rosxud bersa, oni o’ldurmakda. “O’zidin chiqqan balog’a qayg’a borsun davog’a”. Bu muhtalolik, jaholat tartibsiz ko’lub,



so’kub, katta qilib, yoshlikda ko’chada yong’oq, oshuq, ondin kattaroq bo’lganda gapxonada safsata, azkiya degan behuda so’z, urushmoq, so’kushmoqni ta’lim oladur. Bu af’oli badlarni, bu maraz dardni dorusi ilmdur. Yoshlarni maktabda tartib qilib o’surmaganlikdindur. Holo ham sizlarga vaqtdur. Ilmsiz kishi asossiz devor degan. Asossiz devor g’oyat bee’tibor bo’lur. Ilm o’qung, o’qutung, axloqi funun zamonaga dardkorlik ilmlar zarur, agar siz shul zamonda turmak bo’lsangiz”.

Azaldan milliy pedagogikaning asosiy e’tibori shaxs ma’naviyatini kamol toptirishga, ya’ni bolaning odobi va axloqiga, tarbiyasiga qaratilgan. Zero, o’tmishdan mutafakkirlarimiz komil inson siyosini axloqan pok, jamiyatning moddiy va ma’naviy birligini yaratuvchi jismonan sog’lom, yetuk inson qiyofasida ko’rganlar. To’ylardagi isrofgarchiliklar haqida gapirib, alloma shunday deydi: “Xotunlarning qiz to’yiga qilgan mehnatlarini, ovoraliklarini

aytsam, miya qolmaydur. Sif-sidrig’a balosi qalmoqdan qolgan odat. Mana bu balolar ustimizda og’ir bir yukdur”.

Bu yukdan qutulishda yagona najot — ilmdir. Barcha jadid olimlari kabi Is’hoqxon to’ra Ibratning asarlarida ham komil insonni shakllantirish mazmuni, yo’llari, shakllari uslubi hamda tarkibiy qismlari yoritilgan. Ularda yoshlarning aqliy, axloqiy, ruhiy kamoloti muammosi yetakchi qilib qo’yilgan. Bu g’oyani amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida oiladagi ma’naviy muhit va ta’lim-tarbiya tilga olingan.

Farzand voyaga yetkazayotgan oilaning farovonligi, qut-barakasi oila ma’naviyati bilan chambarchas bog’liq. Abdurauf Fitratning “Najot yo’li” (1914) asarida “Oila tarbiyasi” deb nomlangan alohida bob mavjud. Ularda olim oila qurishga xalaqit berayotgan urf-odatlarni qattiq tanqid qiladi. To’ydagi ortiqcha xarajatlar, qalin olishlarni qoralaydi hamda qizlarni oqila beka sifatida tarbiyalash eng muhim masala ekanligini ta’kidlaydi. U uylanish niyatida bo’lgan yigitlarning to’rt narsaga ya’ni bo’ljak kelinning moliga, mansabiga, jamoli va diniga e’tibor berishlarini tanqid qiladi hamda o’z kuzatishlari bo’yicha quyidagi xulosaga keladi: ma’lum vaqt o’tgach, boylik tugaydi; nasl-nasabi toza bo’lsa ham, unga yetarli e’tibor berilmasa keyingi shaxsiy hayotda qol kelmaydi; qiz husni abadiy emasligi va tashqi go’zallik boqiy emasligini ta’kidlab, imon-e’tiqodli qizlarga uylanishni tavsiya etadi. Imon-e’tiqodli ayol o’lasidan farovon bo’lishiga harakat qiladi.

Abdurauf Fitrat asarlarida ona va Vatan, milliy o’zlik tuyg’ulari yaxlit poetik obrazga aylanadi. Uning mashhur “Yurt qayg’usi” sarlavhali uch qismdan iborat sochmalarning tarixiy-ijtimoiy ahamiyati shundaki, ularda ona obrazi orqali millat rosxud bersa, oni o’ldurmakda. “O’zidin chiqqan balog’a qayg’a borsun davog’a” kabi buyuk g’oyalar ilgari surildi. Uning dilini

va tilini kuydirib “Ona”, “Onam” degan nido otilib chiqadi:

*Onam! Seni qutqarmoq uchun
jonm kerakdir?*

*Nomusmi, vijdon bila imonmi
kerakdir?*

*Temur bila Chingiz qoni toshdi
tomirinizdan,*

*Aytgil! Seni qutqarmoq uchun
qonmi kerakdir?*

Mutafakkir olimning “imonmi kerakdir” degan so’zi “Vatanni sevmok imondandir” degan hadisni yodga soladi. Vatanni qutqarmoq uchun shirin jonidan kechishga tayyor, Vatan ozodligini nomus va vijdon qadar yuksak deb biladi. Professor Anqaboy Quljonovning fikricha, adibning “Yurt qayg’usi” nomli turkum sochma she’rlari ilk bor 1917-yilda “Hurriyat” gazetasida chop etilgan edi”. Yashin tezligida tarqalgan asar vatanparvarlikning, millatparvarlikning



haqiqiy alangasi bo’lib, arosatda qolgan xalq qalbini uyg’otishga qodir edi.


“Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi” nomli nasriy asarida Farangi bilan Mudarrisning orasida jiddiy bahs bo’lib o’tgani keltiriladi. “Buxoroda ayollar ham tahsil oladilarni”, degan savolga Mudarrisning “yo’q”, javobini eshitgan Farangi shunday deydi: “Nega ularni tahsildan bebahra qoldirganlar? Ayol aqli ta’lim va tarbiya xususida erkakdan kamroq bo’lmasa kerak. Bizning hakimlardan biri aytadiki: “Biz Amerika va Faransiyo ayollarining ixtirolari mushohadasini keyin bildikki, ayolning tushunish darajasi erkaknikidan kam

millat istiqboli haqida qayg’uradi va Farangining tilidan shunday deydi: “Agar yana bir oz muddat eski g’aflatingizni davom ettirsangiz, din va millatingizning g’amini yemasangiz, sharaf va nomusigingizning muhofazasini o’ylamasangiz, mehribon ona Vataningizning huquqini unutsangiz, jahongir Temur bobongizning sha’ni va izzatiga xiyonat qilsangiz, bu mujassamani vahimalar doirasidan ham chiqarib tashlab, nom- nishonsiz, sharafsiz, izzatsiz rohat uyida azal-abad uxlayajaksiz!”

“Millatning g’amini yemoq” uchun inson ma’rifatli bo’lishi shart. Aslida, madaniy saviyasi, tili va adabiyoti bosqinchilikdan bir necha pog’ona baland bo’lgan o’zbek xalqining mag’lubiyati nimada edi? Bu

“

Yaqinda Dehli shahridagi Javoharla’l Neru universitetida “O‘zbekiston — Hindiston: ilmiy-madaniy hamkorlik — milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasi” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo’lib o‘tdi. Anjumani doirasida O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori Ra’no Sayfullayevaning hind va ingliz tillarida Hindistonda chop etilgan “O‘zbek jadidlari asarlarida milliy taraqqiyot tamoyillari” nomli risolasining taqdimoti o‘tkazildi. “Men kelajakda o‘zbek jadidlarining asarlarini ham hind tiliga o‘g‘irish niyatidaman”, dedi taqdimotda tarjimon, doktor Shamenaz Bano.



emasdir”. Va sizlarning Payg’ambaringiz ham buyurdiki, “Talab ul ilm-u farizaton ala kulli muslimin va muslimatin”, ya’ni “Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir”.

Ayollarning tarbiyati foydali bo’lib, “Man jaa bil hasanati falah-u ashru’u amsaliha”, ya’ni “Kimki yaxshilik keltirsa, unga o’n barobar...” oyatining hukmiga ko’ra, yaxshi amallarga ega bo’lishlik vojibdir. Negaki, yaxshi amallar, yaxshi axloqsiz mumkin bo’lmaydur. Yaxshi axloqqa keyinroq ega bo’lishlik ham “Min ba’di muqaddimat-ul vojib”, ya’ni “Vojib bo’lgan amallarning birinchilaridandir”. Biror kimsa ham tarbiyasiz yaxshi axloq sohibi bo’lmaydi. Bizning birinchi tarbiyamiz onalarimiz tarafidandir, ularning o’zlari tarbiya ko’rmagan bo’lsalar, biz ham ularning yomon tarbiyasidan hamisha yomon axloq egasi bo’lamiz. Shu sababli donolar bizning olamni insoniyat doirasidan tashqarida, deb biladilar. Yurtning baxtsizligi, zaminning saodatsizligidirk, ayollar u yerni ta’lim va tarbiya sharafigidan mahrum qiladilar”.

Asar qahramoni millat ayollarining tahsil olmasligini, o’qimasligini “yurtning baxtsizligi, zaminning saodatsizligi” darajasida og’ir fojia deb bilyapti. Yurt baxtsizligining, zamin saodatsizligining oldini olishning yagona yo’li — millat ayollarini ilmiy qilishdir. Abdurauf Fitrat eng og’irliq savollarga javob izlash jarayonida

og’irliq savol qalbi bedor ziyolilarni, buyuk jadid bobolarimizni mudom qiyndi.

“Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi” asarining xotimasida muallif shunday deydi: “Buxoro bizning muqaddas Vatanimizdir, Buxoro bizning mehribon onamizdir. Buxoro bizning nash’u namo joyimiz, Buxoro bizning sajdagohimizdir, Buxoro bizning aziz ma’shuqimizdir, Buxoro bizning jonimiza barobar mahbubimizdir, Buxoro bizdandir, biz Buxorodan. Bas, bu qadar g’aflet va tanballik, bexabarlik va johillikda o’tirganimiz. Bu diniy mubininimizning nobud bo’lishini, bu muqaddas vatanimizning poymol etilishini kamoli sharafsizlik bilan qabul qilganimizni na shariat, na urf-odat qadul qilmaydi”.

Jadid bobolarimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, g’oyaviy-mafkuraviy tamoyillarining bosh maqsad-muddaosi xalqni mustamlaka zulmidan ozod qilish, oilani va ayollarni xurofat botqog’idan qutqarish, o’sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy saviyasini yuksaltirishdan iborat edi. Ular zamonaviy taraqqiyot yo’lini milliy davlatchilik asoslarini yaratish, erkin jamiyat qurishdan iborat deb bildilar. Fitrat domlaning fikricha, “Agar ding’a, Vatang’a, molg’a, jong’a, avlodg’a muhabbatigiz bo’lsa, agar dinning xalos bo’lishi,

shariatning rivoji, Vatan obodlig’i, avlodning tinchligi, yaxshi nom qoldirishning chorasini xohlasangiz, sizning ilojingiz, avvalo, kasbi maorifdir. Qobiliyatilarni tahsil uchun o’qishga yuboring”.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar zamon va makonga mos ravishda takomillashib boradi. Ular tarixiy, milliy va umuminsoniy taraqqiyotning o’ziga xos jihatlari o’ziga “singdiradi” va ular hisobiga qadriyatlar boyib boradi. Xalq, millat o’z tarixiy xotirasini tiklagani, madaniy merosini o’zlashtirgani sari ruhan boyildi, baquvvat bo’ladi, undan ilhom oladi, istiqloqla intilib yashaydi.

Professor D.Alimova jadidchilik harakatini tahlil qilar ekan, shunday fikrga keladi: “O’tmishga nazar solib, uni o’rganib, o’z davrini tahlil qilgan jadidlar o’z Vatanining kelajagi loyihasini tuza bildilar, uning rivojlanish yo’llarini rejalashtirdilar. Ularning deyarli barchasi oliy diniy ta’lim olganlari, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy she’riyati, qadimgi Sharq mutafakkirlarining falsafiy asarlari ruhida tarbiyalanganlari holda, o’z bilimlarini chet el madaniyati, jumladan, ham Sharq, ham G’arb madaniyati yutuqlari bilan boyitdilar”.

Darhaqiqat, jadidlar tomonidan yo’lga qo’yilgan nashrlar, yaratilgan badiiy, tarixiy va falsafiy, adabiy asarlar millatning uyg’onishiga asos bo’ldi. Bugun mamlakatimizda buyuk jadidlarning barcha oliy maqsadlari, orzu-umidlari amalga oshayotgani yoshlarimizga yangi imkoniyat eshiklarini ochmoqda. Prezidentimizning tashabbusi bilan boshlangan yangi O’zbekistonni bunyod etish g’oyasi asosida amalga oshirilayotgan olamshumul islohotlar zaminida oilani mustahkamlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish kabi buyuk maqsadlar mujassam.

Ayol, ona, oila — mushtarak tushunchalar sifatida millatning g’ururini, or-nomusini anglatadi. Ular har doim vobastalikda millatning obro’-e’tiborini saqlovchi omil hisoblanadi. Shuningdek, oila ma’naviyati milliy mas’uliyatni ham anglatadi. Asrlar davomida ajdodlar tomonidan meros bo’lib kelayotgan moddiy, ma’naviy boyliklarni — urf-odat, an’ana va qadriyatlarini asrash, keyingi avlodlarga yetkazish, yoshlar ongi va qalbiga singdirish, ularda milliy o’zlik tuyg’ularini rivojlantirish, millatning jahon tamaddudidan munosib o’rin egallashida o’zining mehnati, salohiyati bilan fidoyilik ko’rsatish zarurligini anglab yetish va ularni amaliyotga tatbiq etishda millat onalarining hisssasi beqiyosdir. Qadim zamonlardan boshlab barkamol insonni shakllantirishning asosiy mezon sifatida aqliy yetuklik, sog’lom fikr, yuqori iste’dod, ijodkorlik, yaxshi xulq, yurtga sadoqat tarbiyasini shakllantirish tushunilgan.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Ayolni e’zozlash ezigulik va adolat mezon”, degan g’oyani hayotga tatbiq etish maqsadida aholimizning qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o’rni va nufuzini oshirish, iste’dodi va qobiliyatini ro’yobga chiqarish, onalik va bolalikni himoya qilish davlat siyosatining markaziga qo’yildi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o’rni tobora kuchaytirish bo’yicha chora-tadbirlarni belgiladik. Mamlakatimiz boshqaruv tizimida ayollarning ulushini 33 foizga yetkazdik. Yurtimiz bo’yicha 1,5 mingga yaqin xotin-qiz mutaxassis turli darajadagi rahbarlik lavozimlariga tayinlandi”.

Jadidlar millatning “saodatini chin ko’ngildan istagan” edilar. Shu ulug’ maqsad yo’lida umrlarini tikdilar. Ular millatning ma’naviy yuksalishida, farzandlarning komil insonlar bo’lib ulg’ayishida oilani muhim taraqqiyot va yorug’ istiqbol ostonasi deb bildilar. Zero, chinakam ma’rifatli millat o’zining inson sifatidagi qadrlari, milliy qadriyatlarini, milliy o’zligini his qilish, erkin va ozod mamlakatda yashash baxt ekanligini anglaydi va qadrlaydi. Mahmudxo’ja Behbudiydan boshlab, Is’hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat kabi buyuk jadid olimlari, shoiru adiblarining nazdida mamlakatning kuch-qudrati, siyosiy-ijtimoiy barqarorligi, eng avvalo, fuqarolarning ma’naviy-ma’rifiy salohiyati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham, ularning asarlarida oila va xotin-qizlarning ma’naviy-ma’rifiy yuksalishi xususida olg’a surilgan ijtimoiy-siyosiy va huquqiy-axloqiy qarashlar o’z qadr-qimmatini hech qachon yo’qotmaydi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarlari tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ubunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifalili chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.
43313 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05